XALQ DEPUTATLARI BO‘STONLIQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 13 - yanvar VI-76-6-10-136-K/23 Bo‘stonliq tuman hokimligi

2023-yil uchun Bo‘stonliq tumanining mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, Budjet kodeksining 99-moddasiga asosan xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-sonli qarori hamda Bo‘stonliq tumani hokimligi Moliya bo‘limining 2023-yil 10-yanvardagi 01-20-224-27-01-37/4-sonli murojaatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) muvofiq, Bo‘stonliq tumani mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 113863,3 mln. so‘m va xarajatlari 175102,5 mln. so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Bo’stonliq tumani mahalliy budjetining daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq hamda 2023-yil uchun Bo’stonliq tumani budjetidan hududiy mablag‘larni taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori (xarajatlari) 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun viloyat budjetidan Bo’stonliq tumani mahalliy budjetiga

ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini Bo‘stonliq tumani mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2023-yil uchun Bo’stonliq tumani budjetining zaxira jamg‘armasi hajmlari 1651,9 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Bo’stonliq tumani budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

6. 2023-yil uchun Bo’stonliq tumani budjeti shaxsiy g‘azna hisob-varaqalarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 980522,0 mln. so‘m miqdorda belgilansin.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Bo‘stonliq tuman Kengashining mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-avgustdagi PF–6053-son Farmoniga asosan Bo‘stonliq tumanida litsenziya va ruxsatnoma berishdan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va ma’muriy huquqbuzarliklar uchun jarimadan respublika va viloyat mahalliy budjetiga tushadigan mablag‘lar va bojlar to‘liqligicha tuman mahalliy budjetiga yo‘naltiriladi.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad

solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) Toshkent viloyatining viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i.

g) tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga o‘tkazib beriladi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi, bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Toshkent viloyatining viloyat budjeti shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tumanda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman budjetining 5,0 foizi miqdorida, biroq kamida 6,0 mlrd. so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Irisbekov), Moliya bo‘limi (E.Turobov), Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi (Z.Zokirov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada

kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi (Z.Zokirov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish, bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifalari yuklatilsin.

12. Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi (Z.Zokirov) tuman hokimligi hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish, ularning faoliyatlarini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin, bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil

qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheyderlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining tuman bo‘limi (D.Abdullayev) Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi (Z.Zokirov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish va soliq qarzdorliklarini kamaytirib borish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirishni ta’minlasinlar.

14. Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (L.Tadjibayev), Oila va xotin-qizlar bo‘limi (L.Shodiyeva) jismoniy shaxslardan yer va mol-mulk soliqlarini undirish, mavjud qarzdorliklarni bartaraf etish bo‘yicha soliq organlari xodimlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

15. Tuman Irrigatsiya bo‘limi (R.Isayev) va Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi (Z.Zokirov), tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishi hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlariga to‘liq undirib olish choralari ko‘rsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

16. Tuman Ichki ishlar boshqarmasi (A.Boymirzayev), tuman Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (A.Utegenov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

17. Xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan samarali va maqsadli foydalanish ustidan nazorat o‘rnatsin.

18. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Irisbekov tegishli mas’ullar bilan birgalikda:

mahalliy budjetini jami xarajatlarining 5,0 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30,0 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi

jamg‘armasiga yo‘naltirish;

budjet jarayonlariga jamoatchilikni keng jalb qilish maqsadida aholi orasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakuniga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy vebsaytlariga joylashtirib borish choralarini ko‘rsin.

19. Tuman hokimligi axborot xizmati (Y.Abdullayev), “Bo‘stonliq ovozi” ro‘znomasi tahririyati mazkur qarorni tuman hokimligi rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va tuman gazetasida yoritilishini ta’minlasinlar.

20. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Irisbekov va xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (E.Yuldashboyev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **J.Axmedov**

Xalq deputatlari Bo‘stonliq tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-76-6-10-136-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yil uchun Bo‘stonliq tumani bo‘yicha mahalliy budjet reja ko‘rsatkichlari

T/r.	**Daromad turlari**	**Summa,** *ming so‘m*	**Ajratma me’yori,** *foiz*
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	2 490 153	5,0
2.	Korxonalar aylanmasidan soliq	5 951 488	50,0
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	11 801 682	10,0
4.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 040 000	100,0
5.	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	800 115	5,0
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	493 134	5,0
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 961 687	100,0
8.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	4 087 280	10,0
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 697 223	100,0
10.	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2 650 154	100,0
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8 939 660	100,0
12.	Davlat boji	6 076 951	100,0
13.	Jarimalar	10 613 185	100,0
14.	Davlat unitar korxonalari divident tushumlari		
15.	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	729 541	100,0
16.	Yig‘imlar		
17.	Xususiylashtirish		
18.	Boshqalar		
Jami:		**85 332 253**	
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**28 258 864**	
19.	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	11 432 159	
20.	Mobil aloqa xizmati	4 903 731	
21.	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	11 922 974	
Jami daromad:		**113 591 117**	

Xalq deputatlari Bo‘stonliq tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-76-6-10-136-K/23-son qaroriga
2-ilova

**2023-yil uchun Bo‘stonliq tumani bo‘yicha
mahalliy budjet xarajatlarining reja ko‘rsatkichlari**

T/r.	Ko‘rsatkichlar	Miqdori, *ming so'm*
Jami xarajatlar:		**175 102 504**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar jami:**	**116 985 398**
1.1.	Maorif	21 984 752
	Maktabgacha ta’lim	10 691 651
	Umumiy ta’lim	11 293 101
1.2.	Sog‘liqni saqlash	72 155 896
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	-
1.3.	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	5 878 568
	Madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 906 662
	Sport	3 971 906
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	16 798 900
1.6.	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	36 800
1.5.	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	130 482
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar jami:**	**21 267 848**
2.1.	Obodonlashtirish	17 114 295
2.2.	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 482 641
2.3.	Veterinariya qo‘mitasi	1 237 478
2.4.	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 433 434
3.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**22 342 476**
3.1.	Davlat boshqaruv idoralari	22 342 476
4.	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**4 595 320**
5.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 651 910**
6.	**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi**	**8 259 552**

Xalq deputatlari Bo‘stonliq tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-76-6-10-136-K/23-son qaroriga
3-ilova

2023-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘m

Nomi	**Mablag‘ miqdori,** *ming so‘m*
Transfertlar	61 511 387,0